

**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI
IJTIMOIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

**MAFKURAVIY TAHDIDLARNING
MA'NAVIY JARAYONLAR RIVOJIGA
TA'SIRI VA UNI OLDINI OLISH
MEXANIZMLARI**

Toshkent 2025

UO‘K 32.019.5:323.281(06)

KBK 66.0

M 30

Mafkuraviy tahdidlarning ma’naviy jarayonlar rivojiga ta’siri va uni oldini olish mexanizmlari [Matn] / Sh. To‘rayev, I. Suvanov, M. Musayev, M. Musurmonqulov, K. To‘rayev, N. Xusanova, L. Eshonqulov, M. Nomozova .- Toshkent: Voris-nashriyoti, 2025.- 406bet.

Mas’ul muharrir:

Olimjon Davlatov

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

To‘plab nashrga tayyorlovchilar:

Sh.To‘rayev, I.Suvanov, M.Musayev, M.Musurmonqulov, K.To‘rayev,
N.Xusanova, L.Eshonqulov, M.Nomozova

Ushbu to‘plamda **“Mafkuraviy tahdidlarning ma’naviy jarayonlar rivojiga ta’siri va uni oldini olish mexanizmlari”** mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasiga yuborilgan ilmiy maqolalar jamlangan. Shuningdek, to‘plam **“O‘zbekiston – 2030”** strategiyasi hamda **“Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”**da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, AL-9524115134-sonli tadqiqot loyihasi doirasida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tomonidan tayyorlandi.

To‘plam siyosatshunoslik, sotsiologiya, din, falsafa, ma’naviyat, ta’lim yo‘nalishlari mutaxassislari, ilmiy tadqiqotchilar, magistr va bakalavr talabalar hamda keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

ISBN 978-9910-550-63-8

© Voris-nashriyoti

© Toshkent-2025

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING MAFKURAVIY TARBIYALARINI OSHIRISH - O‘QUVCHILARNI O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJIGA TA’SIRI

Qayumova Shohsanam To‘lqin qizi,

*G‘iliston davlat universiteti doktoranti (DSc), Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori, PhD*

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mafkuraviy tarbiyasini oshirishning ahamiyati va uning o‘quvchilarni o‘qish savodxonligini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida mafkuraviy yetuklik nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, kitobxonlik madaniyati va ma’naviy dunyoqarashni shakllantirishda ham muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Maqolada shuningdek, pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida mafkuraviy tarbiya, metodik yondashuvlar, xalqaro tajribalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning qo‘llanishi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: mafkuraviy tarbiya, boshlang‘ich ta’lim, o‘qish savodxonligi, bo‘lajak o‘qituvchi, ta’lim sifati, mustaqil fikrlash, kitobxonlik madaniyati.

Bugungi kunda yoshlarga chuqur bilim berish, mustahkam mafkuraviy dunyoqarashni shakllantirish va ularda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mamlakat taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning dunyoqarashi, bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqi va savodxonligi shakllanadigan eng muhim poydevordir. Shu bois bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning mafkuraviy saviyasi yuqori bo‘lishi, ularning dars jarayonida o‘quvchilarni o‘qishga jalb etish va savodxonligini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Zero, zamonaviy ta’lim jarayonining bosh maqsadi ham – har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlaydigan, ma’naviy barkamol, milliy g‘oyaga sodiq shaxsni tarbiyalashdir. O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlarda yoshlarning intellektual va ma’naviy salohiyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ta’kidlanganidek: “Yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash – bu bizning eng katta boyligimiz va kelajagimizga qo‘yilgan eng muhim sarmoya hisoblanadi”. Shu nuqtayi nazardan, o‘quvchilarda o‘qish savodxonligini rivojlantirish faqat bilim olish jarayoni emas, balki mafkuraviy immunitetni shakllantirish, milliy qadriyatlarga sodiqlik va vatanparvarlikni tarbiyalashda ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mafkuraviy tarbiya tushunchalari va uning ta’limdagi o‘rniga qaraydigan bo‘lsak, avvalo

mafkuraviy tarbiya o‘zi nima ekanligini anglashimiz lozim.

Mafkuraviy tarbiya – bu shaxsda ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy qarashlar tizimini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

O‘qituvchining mafkuraviy saviyasi o‘quvchilarga to‘g‘ri yo‘naltirilgan g‘oyaviy ta’lim berish, mustaqil fikrlashni rag‘batlantirish, kitob va bilim olishga muhabbat uyg‘otish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish imkonini beradi.

Mafkuraviy tarbiya shaxsda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, vatanparvarlik, insonparvarlik, bag‘rikenglik kabi xislatlarni shakllantirish jarayonidir. Bugungi globallashuv davrida yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Yoshlarni g‘oyaviy bo‘shliqdan asrash, ularni yot g‘oyalar ta’siridan himoya qilish – bizning eng muhim vazifamizdir”.

Shu bilan birga, o‘quvchilarni o‘qish savodxonligi va uning ahamiyatiga e’tibor beradigan bo‘lsak, o‘qish savodxonligi bu, — o‘quvchining matnni tushunish, tahlil qilish, mazmunidan xulosa chiqarish va uni hayotiy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmasidir. Boshlang‘ich ta’limda savodxonlik matnni to‘g‘ri o‘qish, mazmunini anglash, o‘qilganidan xulosa chiqarish va kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali rivojlanadi.

Demak, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mafkuraviy tayyorgarligi va o‘quvchilarning savodxonligi o‘rtasidagi bog‘liqlikka qaraydigan bo‘lsak, o‘qituvchilar mafkuraviy saviyasi yuqori bo‘lsa, ular darslardanafaqat bilim, balkimilliyqadriyatlarnihamsingdiradi, savodxonlikni rivojlantirishda samarali metodlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil o‘qishga qiziqishini kuchaytiradi, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning o‘qish malakalari tezroq shakllanadi.

O‘quvchilar o‘qish jarayonida nafaqat bilim oladi, balki o‘z milliy g‘ururi, Vataniga mehr-muhabbati ham shakllanadi. Masalan, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon asarlarini o‘qish orqali ular o‘z xalqining tarixiy merosini chuqur anglaydi. Shuningdek, zamonaviy publitsistik maqolalar, ilmiy-ommabop matnlar orqali dunyoqarash kengayadi va tanqidiy fikrlash rivojlanadi. Bu jarayonda o‘qish savodxonligi va mafkuraviy tarbiya bir-birini to‘ldiradi.

Ushbu yo‘nalishda, zamonaviy yondashuvlar va xalqaro tajribalarni ham ko‘rib chiqadigan bo‘lsak:

- Finlyandiya modeli – kitobxonlik madaniyatini kichik yoshdan shakllantirishga;

- Singapur tajribasi – o‘qish jarayonini interaktiv metodlar orqali yo‘lga

qo'yishga;

Janubiy Koreya – axborot texnologiyalaridan keng foydalanish orqali savodxonlikni rivojlantirishga;

O'zbekistonda esa "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi" tamoyiliga asoslanib, boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish va o'qituvchilarning mafkuraviy tayyorgarligini kuchaytirishga e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, so'nggi yillarda ta'lim sohasida qabul qilingan hujjatlar orasida quyidagilar muhim o'rin tutadi:

- "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi;
- "Kitobxonlikni rivojlantirish milliy dasturi";
- Xalqaro baholash tizimlariga tayyorgarlik dasturlari;
- Raqamli ta'lim resurslarini keng joriy etish;
- O'qituvchilarning malakasini oshirish dasturlari.

Ushbu islohotlar natijasida ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarning professional salohiyatini yuksaltirish va o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga keng yo'l ochildi.

Ta'kidlash joizki, o'quvchilarda o'qish savodxonligini mafkuraviy tarbiya bilan uyg'unlashtirish uchun turli pedagogik metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunga diskussiya va munozara usullari, rol o'ynash va dramatizatsiya, interaktiv topshiriqlar, axborot texnologiyalaridan foydalanish, milliy qadriyatlar bilan bog'langan mashg'ulotlarni misol qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mafkuraviy tarbiya bilan uzviy bog'liqdir. Bu jarayon yoshlarning nafaqat intellektual, balki ma'naviy salohiyatini ham rivojlantiradi. Shu bois, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Maktab kutubxonalarini zamonaviy axborot resurslari bilan boyitish;
2. O'qish savodxonligini xalqaro standartlar asosida baholash tizimini joriy etish;
3. Mafkuraviy tarbiyani interaktiv metodlar orqali olib borish;
4. O'qituvchilarning metodik tayyorgarligini muntazam oshirish;
5. Kitobxonlikni rag'batlantirish bo'yicha davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligini kengaytirish.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning mafkuraviy tarbiyasini oshirish ularning kasbiy mahoratini yuksaltirish bilan bir qatorda, o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Savodxonlikning yuksak darajada shakllanishi esa o'z navbatida millatning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari va farmonlari.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent, 2021.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent, 2021.
4. Jumayev M. "Pedagogik mahorat va kasbiy tayyorgarlik". – Toshkent, 2020.
5. Qodirova G. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish yo'llari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018.
6. Rasulov B. "Milliy mafkura va yoshlar tarbiyasi". – Toshkent, 2018.
7. To'xtasinov Sh. Mafkuraviy tarbiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
8. To'xtayeva D. "Boshlang'ich ta'lim metodikasi". – Toshkent: Noshir, 2019.
9. Xudoyberdiyeva M. O'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirish metodlari. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.

MUNDARIJA

Kirish

3

I. MAFKURAVIY TAHDIDLAR FENOMENI: TABIATI, TURLARI VA SALBIY OQIBATLARI.

1. Kurashish mafkuraviy tahdidlar oldini olishning ta'sirchan omili
Mavrulov Abduxalil 6
2. Mafkuraviy tahdidlarning geosiyosiy mexanizmlari
Kodirov Anvar 14
3. Mafkuraviy jarayonlar rivojida ma'naviy tahdidlarning namoyon bo'lishi
To'rayev Shavkat Nishonovich 19
4. Zamonaviy dunyoda mafkuraviy tahdidlar va ularning ma'naviy jarayonlarga ta'siri
Ravshanov Fazliddin Ravshanovich 24
5. Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda sharq mutafakkirlarining axloq borasidagi qarashlarining roli
Mirashirova Nargiza Anvarovna, Ashurmatov Muzaffar Komilovich 31
6. Alfa avlod vakillari va madaniy imperalizm: mafkuraviy tahdidlar va yechimlar
Norqulov Husniddin Do'sbekovich 37
7. Mafkuraviy xurujlar-yoshlar qadriyatlariga axloqiy tahdid sifatida
Sayidov Murot Nomozovich 45
8. Zamonaviy voqelikdagi etnosentrizm
Nishonov Sarvar Jasur o'g'li 49
9. "Aql markazlar"ning mafkura targ'ibotidagi o'rni
Turayev Abrar Saloxiddinovich 56
10. Sun'iy intellekt va axborot muhitining transformatsiyasi
Xolmirzayev Xurshid Nakibillayevich 63
11. Buyuk Britaniya: milliy jipslik yo'lidagi g'ov
Yakubov Sobirjon Salimovich 68
12. Mafkuraviy tahdidlar fenomeni: tabiati, turlari va salbiy oqibatlari
Kaxarova Munira Maxamadjanovna 73
13. Mafkuraviy tahdid va milliy xarakter masalasi
Mavrulova Munisa 80

62. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mafkuraviy tarbiyalarini oshirish – o‘quvchilarni o‘qish savodxonligini rivojiga ta’siri 333
Qayumova Shohsanam To‘lqin qizi

V. AVLODLAR UZVIYLIĞI – MAFKURAVIY BARQARORLIK KAFOLATI.

63. Yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishda ajdodlar me’rosining o‘ziga xos o‘rni 337
Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna
64. Yangicha ijodiy-ma’naviy jarayonlar jamiyat a’zolarining intellektual takomilida muhim ahamiyat kasb etadi 342
Allayorov Safar Xushvaqtovich
65. O‘zbek xalqining ijtimoiy hayotida oila va nikoh munosabatlarining ijtimoiy transformatsiya jarayonlari 347
Pardayeva Sevara Akram qizi
66. Avlodlar uzviyligi va oilaviy qadriyatlar: Mafkuraviy barqarorlikni ta’minlashda an’ananing roli 353
Sharopov O‘lmasbek Shuhrat o‘g‘li
67. Markaziy Osiyo modernizatsiyasida ichki va tashqi omillarning o‘rni 357
Omonov Baxtiyor
68. Mafkuraviy tarbiyada nazariy masalalar hamda muammoning amaliy jihatlari uyg‘unligi 365
Rashidov Rustam Rasulovich
69. Jamiytdagi yangilanishlar jarayonida ijtimoiy kapitalning ahamiyati 369
Yunusov Abbas
70. Avlodlar uzviyligi – mafkuraviy barqarorlik kafolati sifatida 373
Xusanova Nigora
71. Ma’naviy xavfsizlikka qarshi tahdidlar 386
Maftuna Namozova Shokir qizi, Zulhumor Narzullayeva
72. O‘smirlasrda liderlik xususiyatlari namoyon bo‘lishining ma’naviy-psixologik omillari 392
Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi

**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI
IJTIMOIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

**MAFKURAVIY TAHDIDLARNING
MA'NAVIY JARAYONLAR RIVOJIGA
TA'SIRI VA UNI OLDINI OLISH
MEXANIZMLARI**

**Noshir: Zayniev F.
Dizayner: Zayniev S.**

**Nashriyot raqami: AI № № 189562. 01.09.2025-yil
Tashkent sharhi, Yakkasaray tumani, Yakkasaray MFY,
Xushtepa ko'chasi, 6-uy**

**Bosishga 03.09.2025-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 84x108. 1/16
«Times New Roman» garniturasini.
Ofset bosma ushida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 25, Buyurtma № 46
Adadi nusxa 250 nusxada**

**“BIZNES POLIGRAF” bosmaxonasida chop etilgan.
Manzil: Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Katta Qozirabad, 65
Telefon +998 91 242-12-23**